

TARJIMASHUNOSLIKDA “TRANSFORMATSIYA” TUSHUNCHASIGA DOIR YONDASHUVLAR

Ismoilova Gulshoda Turaboy qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, II kurs tayanch doktorant

ismoilovaqulshoda97@gmail.com, +99899 721-83-97

Annotatsiya: *Maqolada zamonaviy tarjimashunoslikda “transformsitsiya” tushunchasining nazariy asoslari, kelib chiqishi va tarjima jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tarjima jarayoni mazmunni saqlagan holda turli til tizimlaridagi grammatik, leksik va nutqiy o‘zgarishlarni amalga oshirishni talab qiladi. Maqolada “transformsitsiya” atamasining umumiy va struktur lingvistika nazariyalaridan tarjimashunoslikka kirib kelishi, shuningdek, J. Xarris, N. Chomsky, L.S. Barxudarov, N.K. Garbovskiy, Z.D. Lvovskaya, A.D. Shveytsar, V.N. Komissarov, P. Newmark va L.K. Latishev kabi olimlarning ushbu tushunchaga bo‘lgan turlicha yondashuvlari va ta’riflari tahlil qilinadi. Shu tariqa maqola tarjimaviy transformsitsiyalarni tushunish va ularni amaliy tarjimada qo‘llash imkoniyatlarini yoritadi.*

Kalit so‘zlar: *tarjimashunoslik, tarjimaviy transformsitsiya, lingvistik transformsitsiya, struktur lingvistika, til tuzilmasi, nutqiy norma, tarjima nazariyasi, olimlarning yondashuvlari.*

Annotation: *The article examines the theoretical foundations, origins, and role of the concept of “transformation” in modern translation studies. The translation process involves making grammatical, lexical, and speech changes in different language systems while preserving meaning. The article also explores how the term “transformation” entered translation studies from general and structural linguistics, and analyzes the diverse approaches and definitions of this concept by scholars such as J. Harris, N. Chomsky, L.S. Barkhudarov, N.K. Garbovskiy, Z.D. Lvovskaya, A.D. Shveytsar, V.N. Komissarov, P. Newmark, and L.K. Latishev. Thus, the article sheds*

light on understanding translation transformations and their practical application in translation.

Keywords: *translation studies, translation transformation, linguistic transformation, structural linguistics, language structure, speech norms, translation theory, scholars' approaches.*

Аннотация: *В статье рассматриваются теоретические основы, происхождение и роль понятия «трансформация» в современной переводоведческой науке. Процесс перевода включает внесение грамматических, лексических и речевых изменений в различные языковые системы при сохранении смысла. Также в статье рассматривается, как термин «трансформация» вошёл в переводоведение из общей и структурной лингвистики, и анализируются различные подходы и определения этого понятия такими учёными, как J. Harris, N. Chomsky, L.S. Barkhudarov, N.K. Garbovskiy, Z.D. Lvovskaya, A.D. Shveytsar, V.N. Komissarov, P. Newmark и L.K. Latishev. Таким образом, статья освещает понимание переводческих трансформаций и их практическое применение в переводе.*

Ключевые слова: *переводоведение, переводческая трансформация, лингвистическая трансформация, структурная лингвистика, языковая структура, речевые нормы, теория перевода, подходы учёных.*

Zamonaviy tarjimashunoslikda “tarjimaviy transformatsiya” tushunchasi muhim nazariy ahamiyatga ega bo‘lgan asosiy kategoriyalardan biri sanaladi. Tarjima jarayoni bir til birliklarini ikkinchi til birliklari bilan oddiy almashtirish bilangina cheklanmaydi. Aksincha, tarjimon mazmunni saqlab qolgan holda uni boshqa tilning grammatik tuzilishi, leksik tizimi va nutqiy me’yorlariga mos ravishda qayta ifodalashi lozim bo‘ladi. Tarjimadagi ana shu murakkab o‘zgarishlar jarayonini ifodalashda “transformatsiya” termini qo‘llaniladi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, mazkur termin dastlab tarjimashunoslik doirasida yuzaga kelmagan. “Transformatsiya” tushunchasi tarjima nazariyasiga umumiy tilshunoslik hamda struktur lingvistika doirasida shakllangan ilmiy

yondashuvlar ta'sirida kirib kelgan. Ushbu maqolada transformatsiya atamasining kelib chiqishi, uning bir tilli lingvistik tadqiqotlardagi mazmuni va keyinchalik tarjima nazariyasida qo'llanila boshlashi ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy vazifasi - “transformatsiya” tushunchasining tarjimashunoslikka kirib kelish manbalarini aniqlash, uning umumiy va struktur lingvistika bilan bog'liqligini ko'rsatish hamda ushbu terminning tarjima nazariyasidagi ahamiyatini ochib berishdan iborat.

“Transformatsiya” termini lotincha “transformation” - “o'zgartirish”, “qayta shakllantirish” ma'nolaridan kelib chiqqan bo'lib, dastlab falsafa va tabiiy fanlarda qo'llanilgan. Keyinchalik ushbu termin XX asr tilshunosligida, xususan, tilni tizimli hodisa sifatida o'rganishga qaratilgan yo'nalishlarda mustahkam o'rin egalladi.

Umumiy tilshunoslikda transformatsiya tushunchasi, avvalo, bir til doirasidagi shakliy o'zgarishlarni ifodalash uchun ishlatilgan. Bunda gap yoki matnning mazmuni deyarli o'zgarmagan holda, uning grammatik tuzilishi, leksik tarkibi yoki sintaktik modeli o'zgaradi. Masalan, faol nisbatdagi gapni majhul nisbatga aylantirish, murakkab gapni sodda gap bilan almashtirish yoki bir fikrni turli leksik vositalar orqali ifodalash bir tilli transformatsiyalarga misol bo'la oladi.

Tarjima nazariyasida “transformatsiya” atamasi ilk bor XX asrning 50-yillarida J. Xarris tomonidan qo'llanila boshlangan [1, 371]. Shu bilan birga, uning shogirdi N. Xomskiy (Noam Chomsky) transformatsion-generativ grammatikani ishlab chiqdi va “transformatsiya” tushunchasini lingvistika markaziga olib chiqdi. Chomsky fikricha, har bir gap ikki turdagi tuzilishga ega bo'ladi: biri - mazmunning chuqur tuzilmasi (deep structure), ikkinchisi esa - nutqda paydo bo'ladigan tashqi shakl (surface structure). Transformatsion qoidalar ushbu chuqur tuzilmani u yoki bu tarzda yuzaga keladigan tashqi shaklga aylantiradi, ammo mazmuniy asos saqlanib qoladi [2, 33-35]. Masalan, tarjimashunoslikda mazmun o'zgarmagan holda tuzilma va shaklning turlicha bo'lishi hollari aynan shu transformatsion mexanizm orqali tushuntiriladi; bu tarjima nazariyasida transformatsiya tushunchasining lingvistik ildizlarini ochib beradi. Shu sababli, tarjimashunoslikda transformatsiya jarayonlari, asosan, mazmunni

saqlagan holda til tuzilmasi, norma va nutqiy odatlarga moslab qayta ifodalash bilan bog'liq.

Tarjimashunoslikda “transformsatsiya” tushunchasining paydo bo'lishi bevosita bir tilli lingvistik nazariyalar bilan bog'liq. Bu holat tarjimashunos olimlar tomonidan ochiq tan olingan. Xususan, L.K. Latishev quyidagicha yozadi:

“Transformatsiya tushunchasi tarjimashunoslik tomonidan bir tilli o'zgartirishlar sohasidan o'zlashtirilgan” [3, 14). Tarjima jarayoni mohiyatan bir tilda mavjud bo'lgan mazmunni boshqa til vositalari orqali qayta ifodalashni talab qiladi. Bu jarayon bir til ichidagi parafrazlashga o'xshash bo'lsa-da, u yanada murakkab bo'lib, ikki xil til tizimi, norma va uzusni hisobga olishni talab etadi. Shu sababli bir tilli transformsiyalar modeli tarjimashunoslikda tillararo (interlingval) transformsiyalar tushunchasiga aylantirildi. XX asrning 50–60-yillaridan boshlab tarjimashunoslikda tarjimani faqat ekvivalent birliklarni almashtirish emas, balki murakkab qayta ifodalash jarayoni sifatida tushuntirish tendensiyasi kuchaydi. Bu jarayonda “transformsatsiya” termini muhim nazariy vositaga aylandi. Ko'plab taniqli lingvistlar transformsatsiya atamasiga turlicha yondashdilar va uni turli nomlar bilan ataydilar. Jumladan, L.S. Barxudarov ushbu hodisani “xalqaro til transformsiyasi” [4, 6] deb belgilagan bo'lsa, N.K. Garbovskiy uni “xalqaro til o'zgarishlari” [5, 359] deb ataydi. Shuningdek, Z.D. Lvovskaya “Ekvivalent o'zgarishlar” [6, 183] deb nomlaydi, A.D. Shveytsar esa “Xalqaro til operatsiyalari” [7, 46] deb ko'rsatadi. V.N. Komissarov bu jarayonni “Tarjima transformsiyalari” [8, 172] deb ataydi, P. Newmark esa “tarjimaning usullari” yoki “tarjima amaliyoti usullari” [9, 45] deya ta'riflaydi. Shu bilan birga, J.P. Vinay va J. Darbelnet o'z tadqiqotlarida buni “tarjima metodlari” [10, 30] deb izohlaydilar. Bu xilma-xil terminologiya transformsiyalar mohiyatining murakkabligi va ularning tarjima jarayonidagi muhim o'rnini ko'rsatadi.

Tarjimashunoslikda transformsatsiya tushunchasini eng tizimli va chuqur ishlab chiqqan olimlardan biri — L.K. Latishevdir. U tarjimaviy transformsatsiyani asl matn va tarjima matni o'rtasidagi semantik-strukturaviy parallellikdan chekinish sifatida ta'riflaydi [11, 14]. Latishevning kiritgan nazariyaning muhim jihati shundaki, u

transformatsiyalarni: sodda va aralash (murakkab) turlarga ajratadi hamda “kvazitransformatsiya” tushunchasini kiritadi Bu yondashuv tarjima jarayonining haqiqiy tabiatini, ya’ni tarjimon ko‘pincha bir vaqtning o‘zida bir nechta lingvistik darajada o‘zgarishlar amalga oshirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “transformatsiya” termini tarjimashunoslikka tasodifan kirib kelmagan. U umumiy tilshunoslik va struktur lingvistika doirasida shakllangan bir tilli transformatsiyalar nazariyasiga tayangan holda, tarjima jarayonining murakkab mohiyatini tushuntirish zaruratidan kelib chiqqan. Tarjimashunoslikda ushbu termin ikki til o‘rtasidagi mazmuniy va shakliy tafovutlarni yengib o‘tish jarayonini ifodalovchi asosiy nazariy tushunchaga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Harris, J. (1951). *Methods in Structural Linguistics*. Chicago: University of Chicago Press, p. 371.
2. Chomsky, N. (1957). *Syntactic Structures*. The Hague: Mouton & Co. p.33-35.
3. Латышев Л.К. Курс перевода (эквивалентность перевода и способы ее достижения). — М.: Международные отношения, 1988. Стр.19.
4. Бархударов Л.С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). — М., Междунар. Отношения, 1975. — С. 6.
5. Гарбовский Н.К. Теория перевода: учеб. для студентов вузов, обучающихся по специальности «Лингвистика и межкультурная коммуникация». М.: Издательство Московского университета, 2004 - С. 359.
6. Львовская З.Д. Теоретические проблемы перевода (на материале испанского языка) М.: Высшая 1985.- С. 183.
7. Швейцер А.Д. Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты М. Наука, 1988. С 46.
8. В.Н. Комиссаров. Теория перевода (лингвистические аспекты) М.: Высшая школа 1990. — С.172.
9. Newmark P.A. Textbook of Translation. — Shanghai Foreign Language Education Press, 1988. — P.45.

10. Vinay J., Darbelnet J. Comparative stylistics of French and English: A Methodology for Translation. – Amsterdam and Philadelphia: PA: John Benjamins, 1995. – P.30.
11. Латышев Л.К. Курс перевода (эквивалентность перевода и способы ее достижения). — М.: Международные отношения, 1988. С 14.

